

## ANTROPONIMLAR LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

L.Teshebeyeva

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10816354>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ertaklarda qo'llanilgan atoqli otlarning asosiy nomlash funksiyasi hamda, ismlar qahramonning harakter xususiyatlari, tashqi ko'inishini ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** antroponimlar, antroponimika, lisoniy, poetik funksiya, okkazional ma'no, antroponimiya, semantik, folklor.

O'zbek tilshunosligida antroponimlar keng o'rganilgan onomastik birliklardan sanaladi. Antroponimlar shaxs nomlarini ifoda etib, tilda va nutqda ma'lum funksiyalarni bajaradi. O'zbek tilshunosligida antroponimiya bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda, asosan, tarixiy antroponimika, dialektal antronomika, badiiy asarlar antroponimikasi, antroponimlarning nazariy masalalari va boshqalar yoritilgan.

O'zbek antroponimiyasining milliy o'ziga xosligini ikki lisoniy material ta'minlaydi. Bular: tub turkiy nomlar va o'zbekcha ismlardir. Milliy-lisoniy ruh, ayniqsa o'zbekcha nomlarni ijod qilishda yorqin namoyon bo'ladi.

Tub turkiy qatlamga mansub nomlarning aksariyati apellyativ ma'nosi aniq sezilib turgan nomlardir. Shunga qaramasdan ismlarning bu qatlamida ma'nosiga ko'ra uch xil nomlarni uchratish mumkin: 1) ma'nosi aniq sezilib turuvchi nomlar; 2) ma'nosi hozirda qorong'ilashgan ismlar; 3) o'lik ma'noli nomlar. Aksariyat o'zbekcha ismlar birinchi va ikkinchi guruhga mansubdir.

Turkiy qatlamga mansub nomlarni leksik-semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin: 1) ism-bag'ishlovlar; 2) nom-izohlar; 3) ism-tilaklar...<sup>1</sup>. Shuni inobatga olish lozimki, turkiyshunoslikda kishi ismlari tarkibida umumturkiy qatlamni tadqiq etish ancha qadimiy tarixga ega. Xuddi shunday kuzatishlar o'zbek ismshunosligida ham olib borilgan edi<sup>2</sup>.

XX asrning 90-yillariga kelib o'zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o'rganildi. Masalan, Sh.Yoqubov "Navoiy asarlari onomastikasi" mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi, undan oldin B.Bafojev "Navoiy asarlari leksikasi" nomli monografiyasida Navoiy asarlaridagi kishi ismlari va geografik nomlarni semantik va statistik jihatdan tahlil qilgan edi<sup>3</sup>. O'zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish N.Husanovning ishlari bilan ham bog'liq<sup>4</sup>.

"Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"ning 4-tomida Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan barcha kishi nomlari, geografik, astronomik va boshqa nomlar, Alisher Navoiy ijodida uchragan asar nomlarining to'la ro'yxati berilgan<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Сатторов Ф.Х. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. НДА. – Тошкент, 1990. – Б. 18.

<sup>2</sup> Йўлдошева Д. "Девону луғатит турк"да антропонимларнинг қўлланиши ҳақида // Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғатит турк" асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида туган ўрни. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – Б. 101-103.

<sup>3</sup> Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. – Тошкент, 1994. – Б.3-20; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.- Б.37-44.

<sup>4</sup> Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик – семантик ва услубий хусусиятлари. Филол.фан.докт.дисс.автореф., – Тошкент, 2000. –61 бет.

<sup>5</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.268-343.

Bu davrda badiiy asarlarda qoʻllangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari, ularning tarjimai bilan bogʻliq masalalar ham oʻrganila boshlandi. Masalan, Y.Poʻlatovning “Badiiy asarda nomlar tarjimai” nomli risolasi eʼlon qilindi<sup>6</sup>.

Antroponimik birliklar tilshunoslikda keng oʻrganilgan boʻlishiga qaramay, ertak janriga xos antroponimlar maxsus tadqiqot obyekti boʻlgan emas. Bunday nomlar badiiy asarlar va boshqa janrdagi asarlar tilida ham qoʻllanadi va maʼlum bir poetik funktsiya bajaradi.

Atoqli otlar tilning bebaho maʼnaviy, madaniy va tarixiy merosidir. Koʻp asrlardan beri milliy va lisoniy boyligimiz sifatida oʻzbek tilida antroponimlar tarkib topib, shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Bu onimik birliklarni asrash, uning qatorini yangi nomlar bilan toʻldirib borish, ilmiy asoslab oʻrganish muhim vazifadir<sup>7</sup>.

Badiiy adabiyotda ism koʻpincha qahramon xarakteriga ishora qilib keladi. Qahramonlar, odatda, ismlarining mazmuniga mos xarakterga ega boʻladi. Mumtoz adabiyot namunalarini koʻzdan kechiradigan boʻlsak, ismiga munosib qahramonlarni deyarli barcha xalqlar adabiyotida uchratishimiz mumkin<sup>8</sup>. Muallif qahramonning tashqi va ichki dunyosi, xarakter xususiyatlarini inobatga olgan holda ism tanlashi muhim sanaladi. Ertaklarda ham qahramonlarga qoʻyilgan ismlar koʻp hollarda ularning oʻziga xos jihatlarini aks ettiradi.

Qanday asar yaratilishidan qatʼi nazar, unda asar qahramonlari bor va ularning nomlari asarning maʼlum maqsadi yoki gʻoyasini ifoda etadi. Hatto folklorda ham qahramon uchun nom tanlash fikrlashni talab etadi. Baʼzi asarlarda ifodalangan gʻoyani aks ettirishda bosh qahramonning ismi muhim vosita sifatida xizmat qiladi<sup>9</sup>.

Folklarga oid ertak va dostonlarda insonlar manfaatlarini himoya qiladigan qahramonlarning ismlari doimo ijobiy xarakterda boʻladi. Misol uchun: Muqbil, Qilich botir, Odilxon, Bahodir, Dono, Sohibjamol. Aksincha, salbiy qahramonlar ismlarida ularga nisbatan gʻazab, nafrat ifodalangan boʻladi (Maqotil, Mudbir, Egri)<sup>10</sup>.

“Omon bilan Yomon” ertagida ham toʻgʻrisoʻz, rahmdil, kamtar odamning ismi *Omon*, yolgʻonchi, baxil odamning ismi esa *Yomon* tarzida beriladi:

*Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, oʻtgan zamonda ikki doʻst boʻlgan ekan. Birining ismi Omon, ikkinchisining ismi Yomon ekan. Ularning ikkalasi ham oilali, bola-chaqali ekan.*

*Omon toʻgʻri soʻz, kamtar, rahmdil ekan. Yomon esa, yolgʻonchi, baxil ekan, doʻsti Omonning baxtini hech koʻrolmas ekan* (“Omon bilan Yomon”).

Oʻzbek xalq dostonlarida ismlarning qoʻllanilishini tadqiq qilgan I.Xudoynazarov nomlar yordamida tag maʼnoli matnlar yuzaga kelishini taʼkidlaydi: “Atoqli otlar (kishi ismlari)ga matn maqsadidan kelib chiqib okkazonal maʼno yuklanadi. Natijada maqsadli tag maʼnoli matn yuzaga keladi. Masalan: *Dingboy, Qingʻirboy, Chalaboy, Quvnoqboy, Yortiboy, Kuymasboy,*

<sup>6</sup> Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 68 б.

<sup>7</sup> Nazarova N. Oʻzbek tilida antroponimlarning lisoniy tadqiqi//International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-5. –P.2023. –.1689.

<sup>8</sup> Анданиязова Д

. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2017. –Б.24

<sup>9</sup> Zaripov B. Linguo-Cultural Aspects Of Anthroponyms Used In Samples Of Uzbek Folklore//The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: November 28, 2020 | Pages: 224-228 Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue11-40>

<sup>10</sup> Zaripov B. Linguo-Cultural Aspects Of Anthroponyms Used In Samples Of Uzbek Folklore//The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: November 28, 2020 | Pages: 224-228 Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue11-40>

*Toymasboy, Daqqi, Dumaloq, Baxiloy, Kallaboy, Bo'lakboy, Qanorboy* kabilarda xuddi shunday tag ma'no yotadi" <sup>11</sup>.

Ertaklarda atoqli otlarning asosiy funksiyasi faqatgina nomlash emas, balki o'quvchining ma'lum hissiyotlarini uyg'otish va atoqli otlar yordamida hikoya qiluvchining maqsadini keying avlodlarga o'tkazish sanaladi shuningdek ertaklarda qo'llangan ismlar qahramonning xarakter xususiyatlari, tashqi ko'rinishini ifoda etishi mumkin. Ayrim hollarda esa ertaklarda qo'llangan ism teskari ma'no anglatishi ham mumkin.

## References:

1. Nazarova N. O'zbek tilida antroponimlarning lisoniy tadqiqi//International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-5. –P.2023. –.1689.
2. Zaripov B. Linguo-Cultural Aspects Of Anthroponyms Used In Samples Of Uzbek Folklore//The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: November 28, 2020 | Pages: 224-228 Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue11-40>
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.268-343.
4. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. –Б.24
5. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. – Тошкент, 1994. – Б.3-20; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.- Б.37-44.
6. Йўлдошева Д. “Девону луғатит турк”да антропонимларнинг қўлланиши ҳақида // Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – Б. 101-103.
7. Пўлатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 68 б.
8. Сатторов Ғ.Ҳ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. НДА. – Тошкент, 1990. – Б. 18.
9. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил-луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.81.
10. Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик – семантик ва услубий хусусиятлари. Филол.фан.докт.дисс.автореф., – Тошкент, 2000. – 61 бет.

<sup>11</sup> Худойназаров И. Антропонимларнинг тил-луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.81.